

## AMERIKANING YORQIN REALIST YOZUVCHISI JEK LONDON

Mirzayeva Dilshoda Ikromjonovna

Farg'ona Davlat Universiteti ingliz tili kafedrasi mudiri, f.f.d.

Isakova Barchinoy Ne'matovna

Farg'ona Davlat Universiteti lingvistika (ingliz tili) yo'naliishi 21-07 guruh  
magistranti

barchinoyisakova89@gmail.com

### ANNOTATSIYA

*Maqolada Amerikaning yorqin realist yozuvchilaridan biri bo'lgan Jek Londonning mashaqqatli hayoti va yozuvchi bo'lib shakllanishiga turtki bo'lgan omillar haqida yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** образ, автобиографический образ, золотой соблазн, социальное неравенство, рассказ, сказка, миф, индейцы, эскимосы.

### АННОТАЦИЯ

*Статья проливает свет на сложную жизнь Джека Лондона, одного из самых ярких писателей-реалистов Америки, и факторы, побудившие его стать писателем.*

**Ключевые слова:** образ, автобиографический образ, золотой соблазн, социальное неравенство, рассказ, сказка, миф, индейцы, эскимосы.

### KIRISH

Hozirda O'zbekiston dunyoning ko'plab mamlakatlari bilan do'stona aloqalarni o'rnatgan bo'lib, respublikamiz mustaqillikning ilk yillaridan bir qator xorijiy davlatlar bilan teng ta'lif sohasida va iqtisodiy hamkorlik olib bormoqda. Bu esa o'z-o'zidan xorijiy tilda gaplasha olish ehtiyojini tug'diradi. XXI asrda inson o'zini zamонавиу texnologiyalarni va chet tilini bilmasdan tasavvur qilishi juda murakkab, chunki ko'plab internet saytlari ingliz tilida, kompyuterlar hayotimizning har jabhasiga kirib kelgan. Hozirgi paytda ingliz tilini o'rganish, bilish va xorij madaniyatidan xabarboz bo'lish juda muhim masala sanaladi.<sup>[3]</sup>

Amerika adabiyotining yirik vakili va Amerika tanqidiy realizmining yorqin namoyondalaridan biri Jon Griffit Chaney London 1876-yilning 12- yanvarida Kaliforniya shtatining San Fransisko sharqida, kambag'al fermer oilasida tavallud topgan. U tug'ilganidan so'ng, unga Jon Chayney deb ism qo'yadilar. Uning onasi Flora Vellman bo'lib, otasi Uilyam Chaney munajjim bo'lgan. Lekin ularning turmushi Jek London dunyoga kelgunga qadar yakun topadi.

1876-yil ohririda onasi Flora Vellman qisman nogiron bo'lgan, fuqarolik urushi qatnashchisi Jon Londonga turmushga chiqadi. Chaqalog'i Jon (Jek London) bilan birgalikda yosh oila san Fransisko ko'rfazi bo'yida joylashgan Oklendga ko'chib kelishadi. Jon Chaney nomi keyinchalik o'gay otasi nomi bilan "Jek London" ga o'zgartiriladi. U yerda London davlat maktabini tugatguniga qadar istiqomat qiladilar. Oilaviy moddiy qiyinchiliklar tufayli Londonning bolaliklik paytlari qiyinchilik va mashaqqatli mehnat bilan o'tgan. U 10 yoshida gazeta tarqatib, keyinroq, 13 yoshidan keyin uyidan chiqib ketib mustaqil hayot kechira boshlagan. 1889-yilda Hikmotning konserva zavodida kuniga 12-18 soatdan ishslash orqali pul topgan. Bunday ko'p soatlik mehnat yosh bolakayni haddan tashqari holdan toydirar edi. Bu qiyinchilikdan chiqish uchun London cho'qintirgan onasi Virjiniya Prentisdan qarz olib Frank ismli chig'anoq qaroqchisidan qayiq sotib oladi va o'zi ham shu ish bilan shug'ullanishni boshlaydi. Uning qayig'i shikastlanib ishga yaroqsiz bo'lib qolganidan so'ng London Kaliforniya baliq patruli a'zosi sifatida ishga qabul qilinadi.

1893-yilda u Yaponiya qirg'oqlari tomon yo'l olgan "Sofi Sazerlend" kemasi bilan shartnama imzolab, matros sifatida ishlab pul yig'ib qarzini to'lab oladi. U qaytib kelganida, mamlakat 93-yildagi vahima girdobida edi va Oklendni mehnat tartibsizliklari qamrab olgan edi. 1894-yilda London Kaliforniyani tark etib, ishsiz, darbadar kishlar bilan Vashingtonga boradi. U yerda guruh bo'lib yashaydilar va ko'chada darbadarlik qiladilar. Bu tufayli u Nyu-Yorkning Bufallo shahrida hibsga olinib, Eri okrugidagi qamoqxonada 30 kun davomida ushlab turiladi. Shu hibxonada o'tgan kunlari haqida "Yo'l" asarida shunday deydi: "Inson bilan muomila qilish Eri okrugi qalamining chop etib bo'lmaydigan eng kichik dahshatlaridan biri edi. Men "bosib bo'lmaydi" deyman; vaadolatda men ham ta'riflab bo'lmaydigan deyishim kerak. Men ularni ko'rmagunimcha ular men uchun aqlga sig'mas edi va men dunyoning yo'llari va insoniy tanazzulning dahshatli tubsizligidagi bahor tovug'i emas edim. Eri okrugidagi qalamning tubiga tushish uchun chuqur pasayish kerak bo'lardi va men u yerda ko'rganimdek, narsalarning sirtqini yengil va yuzma-yuz ko'zdan kechirardim.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dengizchi va darbadarlik tarzida yashab, ko'plab tajriba orttirganidan so'ng , u Oklendga qaytib keladi va Oklend o'rta maktabida o'qidi. U o'rta maktabning "The Aegis" jurnaliga bir nechta maqolalar yozgan. Uning ilk nashr etilgan asari "Yaponiya qirg'og'idagi tayfun" bo'lib, uning suzish tajribasi haqida hikoya qiladi.

Jek London 1895-yilda ijtimoiy ishchi partiyasiga a'zo bo'lib kiradi va o'zining targ'ibot-tashviqot faoliyatini boshlaydi. U Berklida joylashgan Kaliforniya universitetiga kirishni juda xohlardi. London yozgi qizg'in tayyorgarlikdan so'ng, sertifikatlash imtixonlarini topshirib, 1896- yilda universitetga qabul qilinadi. Bir yil o'qiganidan so'ng, 1897-yida moliyaviy ahvoli tangligi tufayli universitetni tashlashga majbur bo'ladi. London yana og'ir mehnat bilan shug'ullanishni boshlaydi. U kir yuvish korxonasiga ishga joylashadi. Shundan so'ng u 1897-yilning 12-iyulida singlisining turmush o'rtog'i kapitan Shepard bilan oltin izlash uchun Alyaskadagi konlarga suzib ketadilar. U yerda yosh Jek har qadamda hukmron sinf jamiyatining quyi sinf jamiyatiga qilayotgan daxshatl nohaqliklarini ko'radi. Oltin konlaridagi barcha erkaklar kabi London ham to'yib ovqatlana olmasdi va buning natijasida u bir nechta kasalliklar bilan og'ridi. Bu kasalliklar uning umrini ohirigacha bezovta qilib kelgan. "Oltin vasvasasi" girdobiga tushgan Jek umining bir necha yilini o'sha yerda o'tkazadi. Sovuq Shimoldagi hindular hayotiga oid ko'plab asarlari mana shu yerdagi hayotiy tajribalari va ko'rgan kechinmalari asosida yaratilgan. 1900-yildan boshlab Londonning shimol qabilalari va hindular haqidagi "Shimol hikoyalari" to'plamiga oid hikoyalari chop etila boshlandi. Hikoyalarida muallif janubiy dengizga bo'lgan sayohati haqida ham ma'lumot beradi. Biroz vaqtadan so'ng uning hikoyalari xalq orasida juda mashxur bo'lib ketadi va Jek London professional yozuvchi sifatida nom qozona boshlaydi. Hikoyalarining ko'p qismi Shimoliy dengiz sayohatiga oid bo'lib, Jekning asarlar to'plamining bir guruhiga kiradi. ("Janubiy dengiz hikoyalari", "Bo'rivachcha", "Sovuq bolalari")

## XULOSA

Jek London ushbu o'ziga xos va yorqin asarlarida ijtimoiy tengsizlik, insonlarning nohaqligi, pastkashligiga qarshilagini namoyon qiladi. Muallif insonlarning bu kabi nohaqliklarini sovuq iqlimga sharoitiga va zamondan ortda qolgan insonlarning o'ziga xos kuchli fe'l atvoriga qarama-qarshi qo'yadi. Jek Tinch okeani xalqini hamda sivilizatsiyadan ancha yiroq hindularni kuchli, beg'ubor va mard kishilar sifatida tasvirlaydi. [5]

London ularni nihoyatda romantik qilib ko'rsatadi va ularning harakteridagi qiziqqonlilik, mardlik va yashash uchun kurashga hozirligini ko'klarga ko'tarib ulug'laydi. ("Kish haqida qissa", "Shimol Odisseyasi", "Oq sokinlik" va boshqalar). Jek "Oq sokinlik" hikoyasida beshavqat sovuq ob-havoga qarshi tura oladigan, qorli bo'ronlarni yenga oladigan shaxslarni benihoyat ulug'laydi. Biroq u o'z qahramonlarini ya'ni hindular va oltin izlovchilarni haddan ortiq individualist – boshqalardan o'zlarini har qanday vaziyatda ustun qo'yuvchi shaxslar sifatida

ifodalaydi. Hindularning donoligi, o’ziga xosligi, jismoniy ustunligi, kuchli irodasi nafaqat insonlarni, balki yovvoyi hayvonlarni ham o’ziga bo’sundirib yenga oladi. 1900-yildan so’ng London hikoya va asarlarida asosan o’z haq-huquqi uchun kurasha olmaydigan oddiy ishchilar hayotini yoritishga harakat qilgan.

## **REFERENCES**

1. Anikin G.V. Iстория англіской literature. – Moskva.: Nauka, 1975. – 56 b
2. Jek London. Kish haqida qissa. – Toshkent.: Yosh Gvardiya, 1979. – 14 b
3. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.– Toshkent.: Ma’naviyat, 2010. – 57 b.
4. Lunina, Irina Yevgenievna. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. – Moskva // Filologiya fanlari, 1981
5. D. Mirzayeva, & M. Usmanova (2022). SYMMETRICAL AND ASYMMETRICAL RELATIONS IN LINGUISTICS: ANALYSIS ON ENGLISH PREDICATES. Science and innovation, 1 (B6), 500-504. doi: 10.5281/zenodo.7165471
6. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.